



Fidoyilik –
Vatanga xizmat demak!

2024-yil 13-yanvar, shanba,
5 (23.882)-son

1913-yil aprel oyidan chiqqa boshlagan



www.zarnews.uz [@zarnews_uz](https://www.facebook.com/zarnews.uz) https://twitter.com/zarnews_uz

↓ 14-yanvar –
Vatan himoyachilari kuni

TINCHLIK VA XAVFSIZLIK – MAMLAKAT TARAQQIYOTINING MUHIM OMILI



Demokratik, huquqiy, ijtimoiy davlat barpo etishning muhim shartlaridan biri mamlakat tinchligi va xavfsizligi bo'lib, bu vazifani milliy Qurolli Kuchlar bajarishi lozim. Xalqaro terrorizm, ekstremizm kabi xavf-xatarlar, milliy va global xavfsizlikka tahdidlarning kuchayishini inobatga olgan holda, mamlakatimiz xavfsizligi va mudofaa salohiyatini izchil mustahkamlash olib borilayotgan islohotlarning ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilangan.

(2-3-sahifalarga qarang) ➤➤



MAHALLA XALQ VA DAVLAT O'RТАSIDАГИ КО'ПРИК BO'LADI

Vazirlar Mahkamasining tegishli qarori bilan joriy yilning 12-yanvar kuni respublikamizning barcha hududiда tuman va shaharlar mahallani qo'llab-quvvatlash kengashlarining tashkili yig'ilishini o'tkazish belgilangan edi. Samarqand shahar mahallani qo'llab-quvvatlash kengashining birinchi yig'ilishini shahar hokimi, mazkur kengash raisi Fazliddin Umarov olib bordi. Unda shahardagi 215 ta mahalla fuqarolar yig'inlari raislari, kengash a'zolari hamda hamkor idoralar vakillari qatnashdi.

Yig'ilishda Prezidentimizning 2023-yil 21-dekabrdagi "Mahalla institutining jamiyatdagi rolini tubdan oshirish va uning aholi muammolarini hal etishda birinchi bo'g'in sifatida ishlashni ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmoni hamda "O'zbekiston mahallalari uyushmasi faoliyatini yo'iga qo'yish va mahallalarda boshqaruv tizimini takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qaroridan kelib chiqqan vazifalar, mahalla tizimi xodimlari faoliyatining asosiy yo'nalishlari ko'rib chiqqildi.

– Mahallani qo'llab-quvvatlash kengashi byurokratiyadan xoli, o'zi o'zi boshqarish organlarining hamjihatigini ifodalovchi tizim bo'lishi kerak, - dedi F.Umarov. – Shu vaqtgacha "mahalla yettiligi" haqida ko'p gapirdik. Mana, uning faoliyat yo'nalishlari, vazifalarini aniq belgilab beruvchi hujjat hani qabul qilindi. Endi ular joylardagi hokimiyat hisoblanadi, moddiy yordam, subsidiyalarni ham ularning o'zi ajratadi.

Respublika mahallani qo'llab-quvvatlash kengashiga Bosh vazir, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahar hamda tuman (shahar) mahallani qo'llab-quvvatlash kengashlariga tegishlicha Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi Raisi va hokimlar raislik qilishi belgilangan. Yangi tuzilma mahallalarni rivojlantirishning asosiy yo'nalishlarini belgilovchi, daromad va xarakatlar hamda dasturlarni tasdiqlovchi oliy organ hisoblanadi.

– Sohadagi islohotlar mahallaning jamiyatdagi nufuzi va rolini oshirish yo'lidagi muhim qadamlardan biri bo'ldi, - deydi Mir Said Baraka mahallasi raisi Sherzod Saydullayev. – To'g'ri, keyingi yillarda mahalla faollariga qator vakolatlar berilgan edi. Ammo amaliyotda ularni qo'llash bilan bog'liq tizimli muammolarga duch keldik. Prezidentimiz imzolagan hujjalat hamda sohadagi tashkil etilayotgan yangi tuzilmalar bu muammolarni bartaraf etishga qaratilgan bilan ahamiyatli. Jumladan, joriy yildan boshlab mahallaning o'z mablag'i bo'lishi va bu mablag' "mahalla yettiligi" tomonidan yo'naltirilishi belgilandi. Ayni amaliyot ehtiyojmandlarga tez va manzilli ijtimoiy yordam ko'rsatish imkonini beradi. Asosiyi, xalqimizning mahalla institutiga bo'lgan ishonchi ortadi.

Yig'ilishda davlatimiz rahbari raisligida o'tkazilgan Respublika Ma'naviyat va ma'rifat kengashining kengaytirilgan yig'ilishida belgilab berilgan mahalla tizimi faollari zimmasidagi ustuvor vazifalar ham muhokama qilindi. So'zga chiqqanlar mahalla binosida xotira kitobini yuritish, kutubxonalar tashkil etish, aholida boqimandalik kayfiyati shakllanishining oldini olish yuzasidan takliflar bildirdi.

Kun tartibiga muvofiq, viloyat mahallani qo'llab-quvvatlash kengashining tashkili yig'ilishida qatnashish uchun shahardan delegatlar saylandi.

"HAYOTIMNI SAQLAB QOLISHDI"

YOXUD IJTIMOIY "SHIFOKOR" LAR BILAN BIR KUN

"Hayotda ko'p adashdim. Hozir uy-joyim yo'q, qarindoshlarim ham. Spiritli ichimliklarni ko'p iste'mol qilish ortidan qator kasalliklarni orttirib oldim. Oxirgi kunlarda oyoqlarim ham o'zimga bo'ysunmay qo'ydi. Ko'chada qolib ketaman deb o'ylagandim..."

Bu shu kunlarda Kattaqo'rg'on shahar tibbiyot birlashmasida davolanyotgan M.K.ning iqrori. Shahar "Inson" ijtimoiy xizmatlar markazi yordami bilan oyoqqa turgan fuqarolarning kelajakdan umidlari katta.

Aytish joizki, bunga o'xshash voqealar bugun Kattaqo'rg'on shahridagilar uchun yangilik emas. Hududda sinov tariqasida faoliyat yo'iga qo'yilgan "Inson" ijtimoiy xizmatlar markazida shu kabi qiyin ijtimoiy vaziyatga tushib qolgan 12 toifadagi fuqarolar reabilitatsiya qilinib, ijtimoiy himoyaga olinmoqda.

– Aholiga ko'rsatilayotgan ijtimoiy xizmatlar 4 ta shu'baga bo'lingan holda tashkil etilyapti, - deydi markaz direktori Jasur Ahmedov. – Fuqarolar bilan joylarda ishlash uchun 10 nafr ijtimoiy xodim va shuncha assistant shtati ajratilgan. Faoliyatimizni xonardonlarni xatoladan o'tkazish hamda ulardagagi vaziyati, oila va fuqarolarning yashash sharoitini o'rganishidan boshladik. Bu tez bo'ladigan jarayon emas, albatta. Shunday oilalar borki, ulardagagi ijtimoiy muhitni to'g'ri baholash uchun bir yoki ikki kun emas, haftalab kuzatuvi olib borish, jara-yonga psixologlarning jalb qilish kerak bo'ladi. Natija o'zini oqlaydi, xodimlarimizning sabri va mehnati ortidan ehtimoliy muammolarining ham oldi olinyapti.

NOGIRONLIK ARAVACHASI O'RNIGA QO'LTIQTAYOQ

Ijtimoiy xizmat deyliganda ko'pchilik faqat davlat tomonidan beriladigan moddiy yordam va subsidiyalarni tushunadi. Aslida bu juda keng soha bo'lib, uning bosh maqsadi insonlarning turmush tarzini yaxshilash,

jamiyatni sog'ломлаштиришdir. Bunga erishish uchun esa ijtimoiy muammolarni bartaraf etish kerak. Moddiy yordam muammoning yechimi emas, albatta.

– Kerakli muolajalaridan keyin oyoqqa turishi mumkin bo'lgan fuqaroga nogironlik aravachasi ni bersangiz, u sog'ayishga shoshilmaydi, oqibat rostdan ham nogiron bo'lib qoladi, - deydi markazning nogironlar bilan ishlash shu'basi mudirasi Feruza Rahimova. – Shunday fuqarolar borki, har qancha davolanishiga qaramay, o'zini jismonian zaif his qiladi, aslida uning muammosi psixologiyasida bo'ladi. Bu o'z navbatida bizdan har bir holatni individuval va chuqur tahsilii o'rganishni talab qiladi. Soddarooq qilib aytganda, biz kimga nogironlik aravachasi va kimga qo'ltiqtayoq ko'proq foyda berishini aniqlaymiz.

Ma'lumotga ko'ra, shaharda nogironlar soni ortmoqda - 2023-yilning yanvar holatiga 2360 nafr bo'lsa, joriy yilda 2550 nafr. Shu bois markazda nogironlarni rehabilitasiya qilish, qiziqishiga qarab, parapsort va kasbga yo'naltirishga e'tibor qaratilgan. Joriy yil hisobidan shaharda istiqomat qiluvchi 6 nafr nogironligi bor fuqaro parapsort bilan shug'ullanishni boshlagan bo'lsa, 1 nafrasi ishga joylashtirilgan hamda 6 nafrasi kasbga o'qitilmoqda.

INSONIYLIK KASB BO'LSA...

– Hududda 84 nafr o'zgalar parvarishiga muhitoj nuroniyalar istiqomat qiladi, - deydi markazning katta yoshdagisi va og'ir ijtimoiy ahvolga tushib qolgan oilalar bilan ishlash shu'basi mudirasi Zulfiya Qo'chqorova. – Ularning ayrimlarida qarindosh-urug' yo'q, boshqalariniku uzoqqa ko'chib ketgan. Bunday holatda bize birinchi navbata qarindoshlar o'tasidagi aloqalarni tiklashga harakat qila-

miz. Buning imkon bo'limasa, markazdan assistant ajratiladi. Ular belgilangan vaqtarda fuqarolarning uyiga borib, maishiy xizmat ko'rsatadi. Bunga kirlarni yuvish, uy

Marg'uba opa. – Ish vaqtim erta tongdan boshlanadi. Avalo, mustaqil harakatlana olmaydiganlarning holdidan xabar olaman, choyni tayyorlayman. Keyin boshqa manzillarga qarab shoshaman. U yerda ham meni kutib turgan bo'lishiadi. Ishimiz oson emas.

"HAYOTIMNI SAQLAB QOLISHDI"

Markazning mahallada ijtimoiy xizmatni tashkil etish shu'basidan olingan ma'lumotga ko'ra, hududdagi 36 mahalla ijtimoiy xodimlar o'tasida taqsimlangan. Ular har kuni joylarda ijtimoiy kuzatuv olib borib, tegishli toifalarga kiradigan fuqarolarga ko'rsatilishi lozim bo'lgan ijtimoiy xizmatlar keysini shakllantiradi.

Xususan, maqola boshida keltirilgan voqeja qahramonining yangi hayoti ham 10 ming nafridan oshiqlik aholi istiqomat qiladigan Damardi, Yormachit va Navbahor mahallalarida faoliyat olib borayotgan ijtimoiy xodim Adham Ustaboyev bilan uchrashuvdan keyin boshlangan. Biz M.K. bilan shifoxonada uchrashdik. U ijtimoiy xodim uning hayotini saqlab qolganligini bot-bot takrorlardi. "Shifokorlarning aytishi bo'yicha yana bir-ikki kun kechikkanimizda, kasalligim og'ir oqibatga olib kelishi mumkin ekan. Bu odamlar menga shu vaqtgacha ko'rmagan yaxshiligi qilishdi", deydi u hayajonlanib. O'tgan vaqtida markaz aralashuvli bilan fuqaroning yo'qotilgan pasporti qayta tiklanibdi. Endi M.K. kasbga o'qib, ishlar qilishini aytdi. Albatta, markaz unga bu imkoniyatni ham beradi.

Maqolada tilga olingan xizmatlar "Inson" ijtimoiy xizmatlar markazi tomonidan ko'rsatilayotganlarining bir qismi, xolos. Viloyatmizdagi ikki hudud – Paxtachi tumani va Kattaqo'rg'on shahrida sinov tariqasida tashkil etilgan markazlar faoliyatini tizimli takomillashtirib berilmoqda. Kelgusida jarayon yana da samarali bo'ladi hamda bizning e'tiborimizning tortgan masalalar, xususan, mutaxassis kadrlar yetishmasligi hamda assistanslar maoshining kamligi bilan bog'liq muammolar o'z yechimini topadi, degan umiddamiz.

Asqar BAROTOV.



va hovlini tozalash, yegulik tayyorlash, dorixona yoki do'konga borib kelish singari vazifalar kiradi.

Biz assistentlar faoliyati bilan tanishish maqsadida joylarga chiqqdik. Birinchi manzilimiz G'arb machit mahallasida istiqomat qiluvchi 88 yoshi Nuriya Saidovaning xo-nadoni bo'ldi. Keksalik yillarida yolg'iz qolgan onaxon ko'makchisi Marg'uba Azamatova bilan savol-javobimizni noto'g'ri tushunib, "Marg'ubani urushmanglar", deya koyib berdi.

– 45 yil shifokorlik qilib, odamlarni davoladim, - deydi onaxon. – Taqdир ekan, keksayib, o'zini ham e'tiborga muhitoj bo'lib qoldim. Marg'uba yaxshi, har kuni kelib, xizmatimni qiladi. Undan va holimdan xabar olayotgan boshqa ijtimoiy xodimlardan minnatdormon. Ularsiz taqdirimiz nima bo'lardi, bilmayman.

Marg'uba opa shahardagi 4 ta mahalla da istiqomat qiluvchi yana 4 nafr shunday fuqaroga maishiy xizmat ko'rsatadi. Ularning orasida salomatligi og'irlari ham bor.

– Qarovimdagidagi keksalar menga, men esa ularga o'rganib qolganman, - deydi

KUN HIKMATI

Huquq va majburiyatini his qilmagan odam o'z qadrini ham bilmaydi



Hindistonning "Business of Travke Trade - BOTT" ixto-slashirilgan sayohohlik jurnalida qadimiy Samargand shahri va turizm sohasidagi O'zbekiston – Hindiston hamkorligi haqida monolalar chop etildi.

Kattaqo'rg'on shahrida o'tkazilgan bo'sh ish o'rnlari mehnat yarmarkasida 85 nafr fuqaro ishga joylashtirildi va shahardagi "Ishga marhamat" monomarkaziga o'qishga jaib qilindi.

Bulung'ur tumani obodonlashtirish boshqarmasi hamda aholi ko'mida Niyozmatt mallasining 2700 metr, Yerteshar qishlog'ining 1800 metr ichki yo'llariiga mahalla fuqarolar bilan shag'al yotqizildi.

Ishtixon tumani Qoraqo'lyi mahallasining zamonaivi binosi foydalashiga topshirildi.

Kattaqo'rg'on tumanida 30 kilometrik ichki tarmoq ariqlari betonlashtirilib, "Jumagul" kanalining 7 kilometr qismida ta'mirlash, 1,8 kilometr qismini betonlashtirish ishlari bajarilmoqda.

Nurobod tumani ichki ishlar bo'limi xodimlari Tepaqlu mahallasida istiqomat qiluvchi ikkinchi jahon urushi qatnashchisi Rahmon Abilov holdidan xabar oldi.

Payariq tumani Oqqo'rg'on mahallasida o'tkazilgan 84-umumi yorita lim maktabining 120 o'rinni qo'shimcha binosi qurilishiga start berildi.

Paxtachi tumani da suyultirilgan gaz iste'molchilariga gaz ballon to'dirish uchun ID karta berish boshlandi.

Samarqand tumani Chaman mahallasida muddatini o'tab bo'lgan 600 metr ichimlik suvi tarmog'i yangilanmoqda.

Toyloq tumani-dagi 23-umumi yorita lim maktabi zamonaivi sport zaliga ega bo'ldi.

Urgut tumani hokimligi hamda "Inson" ijtimoiy xizmatlar markazi tashhabusi bilan 11 nafr nogironligi bo'lgan fuqarolarga aravachalar topshirildi.



TINCHLIK VA XAVFSIZLIK – MAMLAQAT TARAQQIYOTINING MUHIM OMILI

(Davomi. Boshlanishi 1-sahifada).

MUDOFAA VA XAVFSIZLIK SOHASINI QONUN TALABLARI ASOSIDA BOSHQARISH

O'zbekiston Respublikasining Mudofaa doktrinasida mamlakatimizning prinsipial pozitsiyasi – hech qanday harbiy-siyosiy bloklarga qo'shilmaslik, o'z hududida chet etishga bazalari va obyektlarining joylashtirilishiga yo'l qo'ymaslik, harbiy xizmatchilarimizning xorijdagi tinchlik o'rnatish bilan bog'liq operatsiyalarda ishtirot etmasligi o'z aksini topgan. Shuningdek, ushbu hujjatda Qurolli Kuchlarning asosiy vazifalarini, mamlakat mudofaasini harbiy-iqtisodiy jihatdan ta'minlash asoslarini belgilangan.

Jamiyatni tashqi va ichki tahidillardan himoya qilish maqsadida kuch ishlatalishga doir huquq borasida fagaq davlat mutlaq monopoliga ega va bu huquq davlat kuch tuzilmalariga topshirilgan. Shu bilan birga, ikkita vazifani hal qilishda muvozanatga erishish muhim ahamiyat kasb etadi: bir tomonidan, xavfsizlikni ta'minlash va boshqa tomonidan insonning konstitutsiyaviy huquqlariga riyo qilish. Shu o'rinda huquqni muhofaza qilish organlari va maxsus xizmatlar faoliyatini tartibga soluvchi, so'nggi yillarda qabul qilingan «Ichki ishlar organlari to'g'risida»gi, «O'zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmatini to'g'risida»gi, «O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi to'g'risida»gi va boshqa qonunlarning tarbiyaligi va ahamiyatini qayd etish lozim. Ushbu qonunlarda yuqorida ko'rsatib o'tigan tuzilmalarining maqsad va vaz-

fari, ularning huquq va majburiyatlarini, harbiy xizmatchilar va xodimlar tomonidan jismoniy kuch, maxsus vositalar va o'qotar qurol ishlatalish shartlari aniq belgilangan. Mazkur hujjatlarda harbiy xizmatchilar va xodimlarning noqonunyu xatti-harakatlari yoki harakatsizligi uchun javobgarlik hamda ular tomonidan jismoniy va yuridik shaxslarga yetkazilgan zararni qoplash ham nazarda tutilgan.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasining Davlat chegarasini qo'riqlash va himoya qilish sohasidagi munosabatlarning tartibga soluvchi «O'zbekiston Respublikasining Davlat chegarasi to'g'risida»gi yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Qonuni ishlab chiqildi hamda parlament tomonidan qabul qilindi. Qonun bilan davlat organlarining ushbu sohadagi vakolatlari belgilandi, fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlaring, yuridik shaxslarning hamda O'zbekiston Respublikasi fuqarolaring Davlat chegarasini qo'riqlash va himoya qilishdagi ishtirot etishi tartibga solindi.

Davlat organlarining davlatni tashqi va ichki tahidillardan himoya qilish, jamoat tartibini saqlash bo'yicha faoliyatini tartibga soluvchi bir qator qonunlar, jumladan, «Favqulodda holat to'g'risida»gi Konstitutsiyaviy Qonun, «Qurol to'g'risida»gi, «Aholini va hududlarni tabiy hamda texnogen xususiyatlari favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish to'g'risida»gi qonunlar qabul qilindi.

QUROLLI KUCHLAR USTIDAN FUQAROLIK NAZORATI

O'tgan davrda Qurolli Kuchlar faoliyati ustidan fuqarolik nazoratining tashkili-huquqiy mexanizmlari, markazda va joylarda davlat organlari va jamoat tashkilotlarni harbiy qurilish sohasidagi vazifalarni ishlab chiqish va amalga oshirish jarayoniga, shuningdek, ularning ijrosini nazorat qilishga jaib etish yo'liga qo'yildi.

Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti raisligida Qurolli Kuchlarning, Oliy Majlis palatalarining, vazirlirk va idoralarning rahbariyati, viloyatlar rahbarlari, harbiy okruglar va qismilar qo'mondonligi, jamoatchilik valiklari ishtirokida Xavfsizlik kengashining kengaytirilgan yig'ilishlarini o'tkazish amaliyoti joriy etildi.

Har yili Vatan himoyachilarini kuni arafasida an'anaviy tarzda o'tkaziladigan Xavfsizlik kengashining kengaytirilgan yig'ilishida milliy armiani ishloq qilishning navbatdagi bosqichi natijalarini ko'rib chiqiladi, Qurolli Kuchlarning rivojlantirish bo'yicha vazifalarini amalga oshirishda ishtirot etagan vazirlirk va idoralarning, mahalliy davlat hokimiyati organlarining faoliyati tajridiy baholanadi, har tomonloma muhokama natijalariga ko'ra, mamlakatning m u d o f a a qobilayitini os-

hirish, Qurolli Kuchlarni yanada rivojlantirish bo'yicha navbatdagi vazifalar belgilanadi.

Bundan tashqari, harbiy qurilish sohasida olib borilayotgan islohotlar doirasida mamlakat mudofaa qobilayitini mustahkamlashda mahalliy davlat hokimiyati organlarning roli sezilarini darajada oshirildi. Xususan, har bir hududda harbiy-ma'muriy sektor tashkil etilib,unga rahbarlik qilish mahalliy davlat hokimiyati organi rahbari zimmasiga yuklatildi.

Qurolli Kuchlar ustidan fuqarolik nazoratini amalga oshirishda parlamentning roli oshganligini alohida qayd etish lozim. Hozirgi kunda Oliy Majlis palatalarida hamda ularning mudofaa va xavfsizlik masalalari qo'mitalarida Qurolli Kuchlarni rivojlantirish sohasidagi, shu jumladan, fuqarolarning harbiy xizmatni o'tashi, harbiy xizmatchilarini va ularning oila a'zolari ijtimoiy jihatdan himoya qilish, mudofaga ajratilgan budget mablag'laridan foydalaniish, yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash bilan bog'liq vazifalarning bajarilishi ustidan parlament nazoratining samarali mexanizmi yo'iga qo'yildi.

JANGOVAR TAYYORGARLIK

Harbiy xizmatchilarning jangovar tayyorgarligi tizimini takomillashtirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar amalgal oshirilib kelinmoqda. Xususan, bir qator yangi harbiy poligonlar tashkil etildi, shuningdek mavjudlari to'liq modernizatsiya qilindi. Hozirgi kunda barcha harbiy poligonlar zamonaviy o'quv-moddigi baza bilan jihozlangan. Shundan 12 tasi xalqaro talablarga muvofiq jihozlangan bo'lib, ular dan harbiy ishning turli yo'nalishlari bo'yicha xalqaro harbiy musobaqalarni o'tkazishda foydalanilmoqda.

Ta'kidlash joizki, «Farg'ona», «Forish», «Chirchiq», «Kattaqo'rg'on», «Termiz» va «Nukus» poligonlariga «Dala tayyorgarligi yagona Markazlarini maqomi berilgan va hozirda ulardan barcha kuch tuzilmalarining shaxsiy tarkibi bilan jangovar tayyorgarlik bo'yicha mashg'ulotlar o'tkazish uchun foydalanim kechinmoqda.

O'quv dasturlarida jangovar tayyorgarlik bo'yicha amaliy mashg'ulotlarning ulushi sezilarlar darajada oshdi, ya'ni parashutda amaliy sakrashlar soni 2,2 barobar, o'q otish, piyoda yurish va harbiy texnikada harakatlanish mashg'ulotlari soni 3 barobar oshdi.

So'nggi bir necha yil ichida faqat Mudofaa vazirligi tizimining o'zida qo'shinlarni doimiy jangovar tayyorgarlikda saqlab turish maqsadida jangovar vaziyatlarga yaqin sharoitlarda 1100 dan ortiq to'satdan tekshiruvlar o'tkazildi.

HARBIY KADRRLARNI TAYYORLASH

Qurolli Kuchlarni rivojlantirishning asosiy yo'nalishlaridan biri shubhasiz, harbiy ta'limganing sifatini oshirish hisoblanadi.

Harbiy kadrlarni tayyorlash tizimini takomillashtirish bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar doirasida 2017-yilda Toshkent oly umumqo'shin qo'mondonlik bilim yurti negizida O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Akademiyasi tashkil etilib, unda yetakchi ilmuy va ta'lim muasasalarining tajribasi muجاجamlashtirildi.

Hozirgi kunda Akademiyada O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari uchun ofitserlarni tayyorlash va qaya tayyorlash amalga oshirilmoqda. Chegara qo'shinlari ofitserlarni tayyorlash va malakasini oshirish fakulteti, Ichki ishlar vazirligining harbiy tuzilmalari mutaxassislarini tayyorlash kafedrasini tashkil etilgan.

O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari kichik mutaxassislarni tayyorlash markazi, Oliy harbiy aviatsiya bilim yurti, Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va harbiy aloqa instituti, Qurolli Kuchlar Harbiy



YURT TINCHLIGI UCHUN HALOVATIDAN KECHGANLAR

Harbiy libosdagi yigitlarning saf tortib, shaxdan qadam tashlayotganini kuzatgannamisiz? O'tkir nigoҳida ona-yurtga muhabbat, g'ayrat-shijoatida vatanparvarlik aks etgan harbiylar yurtimiz tinchligi, chegaralarimiz daxlsizligi va xalqimizning farovon hayot kechirishi uchun jasorat ko'rsatib kelyapti.

Jumladan, Samarqand shahridagi harbiy qismida faoliyat olib borayotgan ikkinchi darajali serjant Jobir Berdiyev hamda mayor Isroil Tuyev Vatanimiz mudofaasida fidoylik ko'rsataygan harbiylardan.

- Harbiylar kasbini hamma ham tanlayervermaydi, - deydi Jobir Berdiyev. - Yurtimizning turli hududlarida, oilasidan uzoqda bo'lishga to'g'ri keladi. Ammo harbiy xizmatchi har qanday sharoitda ham o'z ontiga sodiq bo'lib, vazifasini bajarishi shart. 16 yildan buyon harbiy sifatida xizmat qilaman. Jangovar texnikalarga texnik xizmat ko'rsatish va ularni ekspluatatsiya qilishda ishtirot etaman.

O'tgan yil Prezidentimiz tomonidan "Sodiq xizmatlari uchun" medali bilan taqdirlandim va bu e'tirof menga mamlakatimiz mudofaasini mustahkamash, milliy armiyamiz salohiyatini oshirish yo'lida kuch-g'ayrat bag'ishlasi.

Mayor Isroil Tuyev 2010-yilda muddatli harbiy xizmatdan qaytgach, Chirchiq oly tank qo'mondonlik-muhandislik bilim yurtida tahlil olgan. Harbiylar o'ttasida o'tkazilgan tanlov va musobaqaqlarda muvaffaqiyatli ishtirot etgan. Ayni chog'da askarlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda fidoylik ko'rsatib kelmoqda.

- Sarhadlarimiz daxlsizligini ta'minlayotgan, tinchligimizni asrayotgan yurt posbonlariga havas qilib, harbiylarini tanlaganman va bundan hech qachon afsuslanmayman, - deydi Isroil Tuyev. - Ikkii nafer farzandim bor. Ular ham harbiy bo'lmoqchi. Yurtimizda harbiy xizmatchilar va ularning oila a'zolari ijtimoiy qo'llab-quvatlash uchun barcha sharoi yaratilgan. Men ham 2019-yilda uy-joy bilan ta'minlandim, 2020-yilda Prezidentimiz tomonidan "Shuhrat" medali bilan, 2022-yilda Mudofaa vaziri tomonidan "Jangovar faoliyati uchun" III darajali ko'krak nishoni bilan taqdirlandim. Bularning barchasi menga bildirilgan ishonch. Bu ishonchga munosib bo'lish uchun timmay harakat qilaman.

Fazliddin RO'ZIBOYEV,
Baxtiyor MUSTANOV (surat).

Hamma ham harbiy bo'lavermaydi

HARBIY XIZMATCHIDA FARQLI HUQUQLAR BOR

Vatan himoyasi yo'lidagi xizmat jozibadorligini oshirish uchun qator chora-tadbirlar belgilangan. Misol uchun, shartnoma asosidagi harbiy xizmatchiga 30 kalendar kuni (davlat xizmatchisiniidan ko'p) ta'til, ta'til o'tkazish joyiga borib-kelish uchun 3 kundan ko'p bo'Imagan qo'shimchani aytilib o'tish mumkin.

Bu kabi ishlar Qurolli Kuchlarimiz jangovar shayligini oshirish maqsadini ko'zlagani shubhasiz. Milliy armiyamiz tashkil qilingan kun oldidan ularning ayrimlarini siz bilan bo'lishishni lozim topdik.

UY-JOY BERILADI

Davlatimiz rahbarining tegishli qarorida harbiy xizmat majburiyatlarini bajarish vaqtida orttirilan kasallik yoki olingan jarohati tufayli harbiy xizmatni o'tashga yaroqsiz deb topilib, iste'foga chiqarilgan Qurolli Kuchlar harbiy xizmatchilarini, shuningdek, vafot etgan harbiy xizmatchilarning, ularning xizmat muddatidan qat'i nazar, oila a'zolarini uy-joy bilan ta'minlash belgilangan.

* * *

Vazirlar tomonidan uy-joy bilan ta'minlanmagan shartnoma bo'yicha harbiy xizmatchilariga ularning arizasiga binoan taqdim qilinayotgan uy-joyning hisoblangan qiymatining 25 foizi miqdoridagi dastlabki badal pulini Davlat budgeti mablag'lari yoki qonunchilikda taqiqlangan boshqa manbalari hisobidan to'lash yo'li bilan uzoq muddatli imtiyozli ipoteka krediti berish tizimi bo'yicha turarjolar berilishi mumkin.

TAVSIYANOMA - TALABALIK UCHUN IMTIYOZ

Mudofaa vazirligi qo'shinlarida xizmat qilayotgan muddatli harbiy xizmatchilar tomonidan jangovar va ma'naviy-ma'rifiy tayyorgarlik dasturlarining o'zlashtirganligini yakuniy baholash hamda ularning bilim darajasini tekshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Bilim va malakalarni baholash agentligi tomonidan test sinovlari o'tkaziladi.

Tavsiyanoma berish to'g'risidagi yakuniy qarorni qabul qilish uchun har bir muddatli harbiy xizmatchi test sinovlarining natijalari, namunalni harbiy intizomi va o'quv fanlaridan qo'yilgan o'rta tashqacha ko'sratkichi yig'indisi jamlanadi. Xizmat mobaynida Davlat mukofotlari bilan taqdirlangan muddatli harbiy xizmatchilar test sinovlarining natijalardan qat'i nazar, tavsiyano olish huquqiga ega bo'ladи.

Tavsiyanoma oorganlar respublikamizning oliy harbiy ta'lim muassasalaridagi tegishli ta'lim yo'nalishlariga o'qishga kirishda test sinovlari natijalariga ko'ra to'plagan ballarining 50 foizi miqdorida qo'shimcha ball shaklidagi imtiyozga ega bo'ladи.

Boshqa olyi ta'lim muassasalarini bakalavriatiga o'qishga kirishi uchun tegishli o'quv yiliga tasdiqlanadigan olyi ta'lim muassasalariga qabul parametrleridan tashqari alohida ajratilgan qabul ko'rsatkichlari doirasida tanlovdan ishtirot etadi.

Taqdim etilgan tavsiyanoma uch yil mobaynida amal qiladi.

* * *

Qurolli Kuchlar tarkibiga kiruvchi vazirlik va idoralor xodimlarining oshirilganda hamda burchini bajarish chog'ida halok bo'lgan tibbiyot qo'shni qorilgan bo'lib qolgan xodimlarning farzandlariga oliy ta'lim muassasalarining bakalavriatiga tanlovsiz qabul qilinish to'g'risida tavsianomalar beriladi.

BOG'CHAGA NAVBATSIZ

Shartnoma bo'yicha harbiy xizmatchilarning farzandlari yashash joyi, shu jumladan vaqtinchalik yashash joyi bo'yicha davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari qonunchilikda belgilangan, tartibda imtiyozli ro'yat asosida, o'rta ta'lim muassasalarini, shuningdek, vazirliklarning bolalar sog'lomlashtirish lagerlariga navbatsiz qabul qilinadi.

ENG MUHIMI - INTIZOM

Olyi harbiy ta'lim muassasasini bitirganidan keyin o'qishni tugatgandan so'ng tuzilgan shartnoma bo'yicha ko'zda tutilgan muddat tugamasdan harbiy xizmatni o'tashdan bosh tortgan, shuningdek, shartnoma shartlarini bajarmaganligi, sodir etgan jinovali uchun sudlanganligi sababli bo'shatilayotgan yoki bunday shartnomani tuzishdan bosh tortgan harbiy xizmatchi qonunchilikka muvofiq uni o'qitish uchun sarflangan budget mablag'larini davlatga qoplab oqolab beradi.

(Harbiy xizmatchini olyi harbiy ta'lim muassasasida 4 yil o'qitish uchun BHMning 1300 baravari miqdorida budget mablag'lari sarflanadi.)

Y.MARQAYEV tayyorladi.

hida rejalar tasdiqlanib, amalga oshirilmoqda.

Mudofaa vazirligining 300 dan ortiq harbiy xizmatchisi xorijiy olyi harbiy ta'lim muassasalarida ta'lim oldi. O'z navbatida, erishilgan keli-shuvlar doirasida ayni paytda bir qator xorijiy davlatlarning harbiy xizmatchilar O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligining oliy harbiy xizmatchilarini qonunchilikda ishtirot etadi.

Harbiylik libosini kiyish, Vatan posboni bo'lib, yurt himoyasida turish har bir yigitning orzusi hamda eng sharafli burchidir. Markaziy harbiy okrugga qarashli harbiy qismalarning birida yo'riqchi serjant vazifasida xizmat qilayotgan Mansur Tog'ayniyozov ana shunday mas'uliyatlari vazifani ado etayotgan o'g'londan biri.

Surxondaryo viloyatining Oltinsoy tumanida tug'ilgan qahramonimiz bolaligidan harbiyligka mehr qo'yan, yillar o'tib, orzusiga erishgan va ayni damda Vatan oldidagi burchini sadoqat bilan bajarish kelmoqda.

- 19 yildan beri harbiy sifatida faoliyat olib boryapman, - deydi ikkinchi darajali serjant Mansur Tog'ayniyozov. - Yoshligimda harbiylarga qiziqib, men ham harbiy bo'lsam, Vatanimga xizmat qilib, ota-onam ishonchini oqlasam, deb orzu qillardim. 2004-yilda muddatli harbiy xizmatga chiqildim. Xizmat davrida komandirlarimning o'ziga bo'lgan ishonchi, doyurakligi, shioati harbiyligka bo'lgan hava-simni oshirdi.

Muddatli harbiy xizmatni o'tab bo'lgach, shartnomaga bo'yicha harbiy xizmatni davom ettirdim. 2010-yilda Janub-i g'arbiy maxsus harbiy okrug miqyosida o'tkazilgan "Eng ilg'or razvedka guruhi" musobaqasida birinchini o'rinni

Jasoratni qalbiga jo qilgan o'g'lon



egalladim.

Sportning yengil atletika turiga qiziqishim baland edi. O'sha vaqtarda sportning shu yo'nalishi bo'yicha o'tkazilgan musobaqa besh karra g'oliblikni qo'rga kiritgancha. Keyinchalik "Eng ilg'or mutaxassis" tanloving "Eng ilg'or serjant" musobaqasida Janubi-g'arbiy maxsus harbiy okrug miqyosida birinchisi, Mudofaa vazirligi miqyosida esa ikkinchi o'rinni qo'rga kiritdim.

2017-yildan esa xizmatni Markaziy harbiy okruggedavom ettirdim. 2018-yil bu yerda "Eng ilg'or razvedka guruhi" musobaqasida umumjamoa hisobida birinchio'rinni, "Eng ilg'or kasb ustasi" tanloving "Eng ilg'or serjant" musobaqasi g'olibligini, Mudofaa vazirligi miqyosida esa ikkinchi o'rinni qo'rga kiritdim.

Mansur Tog'ayniyozov xizmati davomida jangovar, ma'naviy-ma'rifiy tayyorgarlik bo'yicha ishlarni tashkil etish va o'tkazish, shaxsiy tarkibni Vatanga, harbiy burchiga hamda qasamyodga sodiq, yuksak jangovar va axloqiy-ruhiy barqor bo'lib shakilanishi yo'lda jonbozlik ko'rsatib kelmoqda. Uning o'tgan yillar davomida erishgan muvaffaqiyati, bu yo'ldagi shiooti, intiluvchanligi mustaqil-ligimizning 32 yilliagi bayramida e'tirof etildi va "Jasorat" medali bilan taqdirdirlandi.

- Prezidentimiz tomonidan ushbu mukofotga loyiq ko'rilganim Vatanimiz tinchligi yo'lda sadoqat bilan xizmat qilishda iftixor bag'ishladi va yuksak mas'uliyat ham yulkadi, - deydi Mansur Tog'ayniyozov. - Shu kungacha erishgan muvaffaqiyatlarimda olim, komandiralarim va safdoshlarimning hissasi katta. Chunki ularning qo'llab-quvvatlashlari va bildirgan ishonchi bilan yutuqlarga erishyapman. Bundan keyin ham yurtimiz tinchligi, milliy armiyamiz rivoji uchun mehnat qillishdan to'xtamayman.

Fazliddin RO'ZIBOYEV,
Baxtiyor MUSTANOV (surat).

ADABIYOT VA SAN'AT HARBİYLARGA G'AYRAT BAG'ISHLAYDI

Askar bo'lish har bir yigitning bolalikdagi orzusi. Men ham harbiy bo'lishini niyat qilganman. Qashqadaryo viloyati Chiroqchi tumani, Yettitor qishlog'ida tug'ilganman. Chiroqchida kurashchi polvonlar talaygina. Ularga havas qilib, esimni taniganimdan buyon sport bilan shug'ullanaman, san'atga ham qiziqishim baland.



bilan turli chiqishlar qilyapmiz. Bu jamaoda mis tarekla va baraban musiqa asboblari chalaman. Harbiysha shaxdam qadamlar bilan musiqa asboblari chalib, harakatnishing zavqi boshqacha. Turli kuylar ijob etishimiz harbiylarga jangovar ruh bag'ishlaydi va ularning madaniy hordiq chiqishlar uchun xizmat qiladi.

Shuningdek, viloyatning turli mahallalarida, ta'lim muassasalarida o'tkazilayotgan madaniy tadbirda ham qatnashib, aholi, xususan, yoshlar davarasida chiqishlar qilyapmiz. Bu orqali yosh yigit-qizlarning harbiyligka bo'lgan qiziqishi ortayotganiga guvoh bo'lyapmiz.

Markazimizda harbiy ansambl ham tashkil etish rejashishtrilgan. Bu harbiy qismalarda xizmat qilayotgan biz kabi san'atsevar yoshlar uchun qulay imkoniyat. Shu bilan birga, harbiy xizmatchilar va aholi uchun o'tkazilagan tadbirning yanaada rang-barang bo'lishiga xizmat qiladi.

Akram RAHMATULLAYEV,
harbiy xizmatchi.

Yoshi kattalar yaxshi biladi. Bundan 30-40 yil avval aksariyat hollarda xat-savodi bo'lmasa ham jismoni baquvvat yigitlar armiyaga qabul qilinavergan. Mamalakatimiz mustaqillikka erishgach, O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil etildi. Bugungi kunda mazkur tizimda xizmat qilish uchun nafaqat jismonan baquvvat, balki bilmili, salohiyatlari bo'lish talab etilm-oqda. Qurolli Kuchlar safida xizmat qilayotgan harbiylar, hatto ularning oilasi, farzandlarining yashashi, o'qishi, sport bilan shug'ullanishi, maroqli dam olishi uchun zarur sharoitlar ham yaratilyapti.

Kichik serjant Umidjon Abdumajidov Samarcand shahridagi harbiy qismalarning birida xizmat qiladi.

- 6 yildan beri tizimda faoliyat olib boraman, - deydi u. - Xizmat davomida harbiy mashg'ulotlar bilan birga, kitob mutolaasi bilan shug'ullanishni kanda qilmayman. Buning uchun harbiy qismida zarur sharoitlar yaratilgan. Kutubxonada istagan kitobimizni topishimiz mumkin. Mudofaa vazirligi tizimida turli xil tanlovlardan o'tkazilgan "Yosh kitobxon" tanlovida birinchisi o'rinni egalladim. Shuningdek, vazirlik tomonidan o'tkazilgan "Zakovat" intellektual o'ynida qurodosh do'starlarning birligida ishtirok etdik va ja-moamiz g'oliblikni qo'rga kiritdi.

Yana bir yigit Asadbek Hasanov asli andijonlik, muddatli harbiy xizmatni Surxondaryo

viloyatida o'tadi. Bugun esa Samarcandda xizmat qilayti.

- Bolaligimda harbiylig libosini kiyishga juda qiziqqanman, - deydi A.Hasanov. - Tog'alaram harbiy bo'lgan. Ularga havas qilardim. Maktabni tugatib, Namangan san'at kollejining damli cholg'ular orkestri (klarnet) yo'nalishiga o'qishga qabul qilindim. Uni tamomlab, yigitlik burchimni Surxondaryoda o'tadim. U yerda san'atga bo'lgan qiziqishimni sezgan ofitserlar meni harbiy qismning orkestr ja-moasiga tavsija qilishi. Muddatli harbiy xizmatidan keyin Andijonga qaytmadim. Bolalikdagil qiziqish meni Markaziy harbiy okrugga yetakladi.

Bugun Asadbek Samarcand garnizoni ma'naviyat va ma'rifikat markazining harbiy orkestr ja-moasining eng yosh, shu bilan birga, faol a'zosi.

- Bir yigitga qirq hunar oz, deb bejizga aytilmagan, - deydi



u. - Esimni taniganimdan beri sport va san'at bilan shug'ullanam. Har ikkisi menga havotim davomida asqotyapti. Surxondaryodagi bir do'konda chanqovuzni ko'rib qolib, totib olgandim. Ammo uni chalishni bilmasdim. Bir kecha timmasdan harakat qilganman va uddasidan chiqqanman. Bugungi kunda orkestr jamaamiz bilan kuylar ijob etib, harbiy xizmatchilariga jangovar ruh bag'ishlayapmiz. Shuningdek, madaniy tadbirdaralay va changovuz chalib, ularga zavq bag'ishlashga hissa qo'shatyogimdan xursandman.

Albatta, adabiyot va san'at harbiylarga mamlakatimiz mudofaasini mustahkamlash, milliy armiyamiz salohiyatini har tomonlamo oshirish yo'lda kuch-g'ayrat bag'ishlaydi.

To'Iqin SIDDIQOV.

Akademik pedagog va talabalarga mahorat darsi o'tdi

Prezidentimiz 2023-yil 23-dekabrda "O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining haqiqiy a'zolarini tasdiqlash to'g'risida"gi farmonni imzoladi.

Farmonga asosan, 16 nafar olim O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining haqiqiy a'zosi etib tasdiqlandi. Ular orasida payariqlik olim, bugungi kunda Qori Niyoziy nomidagi O'zbekiston pedagogika fan-

lari ilmiy-tadqiqot instituti direktori, pedagogika fanlari doktori, professor Xolboy Ibraimov ham bor.

Akademik X.Ibraimov Samarcand shahridagi O'zbekiston-Finlandiya pedagogika institutida professor-o'qituvchilar va talabalar bilan uchrashdi.

- Akademik degan sharafli unvonga sazovor bo'lganidan keyin ilk uchrashuvni aynan o'zim tug'ilib o'sgan, ta'lim oqigan Samarqanddan boshlashni niyat qildim, - deydi X.Ibraimov. - Bugun biz turgan

mazkur institut binolari, hovli si men uchun qadron. Bu yerda yoshlik, talabalik davrim o'tgan. Erishgan ulkan yutuqlarim ushbu ta'lim dargohida us-tozlarimning bergan sabog'i tufaylidir. Pedagog - yosh avlodiga ta'lim-tarbiya beruvchi, ularni ezziguliklar sari yetaklovchi shaxs. Buning uchun avvalo, u tarbiyal, bilimli bo'lishi kerak.

Akademik bilan uchrashuv viloyat pedagoglari yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazida ham o'tkazildi. Uchrashuvlar davomida pedagog va talabalar uchun mahorat darslari tashkil etildi.

T.NARZULLAYEV.

REKLAMA, E'LONLAR, BILDIRISHLAR / Gazetamiz haftada uch marta - sheshanba, payshanba va shanba kunlari chop etiladi / Gazetada chop etilayotgan reklama va e'lolar tezkor, samarali va hamyonbop / MUROJAAT UCHUN TELEFON: 66-233-91-56

DA'VOLAR BO'LSA...

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Bobomurodov Pirmamat Isomidinovich notarial idorasida marhum Kurazov Shavkat Xakimovichga (2023-yil 5-mayda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan meroxo'rlarning Bobomurodov Pirmamat Isomidinovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Beruniy ko'chasi, 12-uy.

Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Muhammadiyev Farhod Jo'raqulovich notarial idorasida marhum Kamolov Maxmud Shomurotovichga (2023-yil 24-iyunda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan meroxo'rlarning Muhammadiyev Farhod Jo'raqulovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Payariq tumanı Chelak shaharchasi, Istiqlol ko'chasi, 73-uy.

Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Qodirov Ulug'bek

Jomboy tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Mamatqulov Otabay Bolbekovich notarial idorasida marhum Safarov Alimxon Qurbonovichga (2021-yil 20-dekabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan meroxo'rlarning Mamatqulov Otabay Bolbekovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Jomboy tumanı Saroy ko'chasi, 15-uy.

Jomboy tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Mamatqulov Otabay Bolbekovich notarial idorasida marhum Narmatova Xadichaga (2022-yil 18-noyabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan meroxo'rlarning Narmatova Xadichaga notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Jomboy tumanı Saroy ko'chasi, 15-uy.

Jomboy tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Qodirov Ulug'bek

Tolibovich notarial idorasida marhum Rjabov Jamol Xolmurowichga (2023-yil 21-avgustda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan meroxo'rlarning Qodirov Ulug'bek Tolibovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Jomboy tumanı Saroy ko'chasi, 15-uy.

Jomboy tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notariuslarida marhum Qosimov Sherali Aliboyevicha (2023-yil 31-mayda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan meroxo'rlarning Jomboy tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notariuslarga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Jomboy tumanı Saroy ko'chasi, 15-uy.

Samarqand tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Abdullayev Nodir Jamoliddinovich notarial idorasida marhum Mazurekov Yuriy Bronislavovichga (2014-yil 12-yanvarda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan meroxo'rlarning Hoshimov G'olib Baxtiyorovich notarial idorasiga murojaat

bat bilan meroxo'rlarning Abdullaev Nodir Jamoliddinovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand tumanı U.Samiyev ko'chasi, 1-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Saidova Zara Xisrovovna notarial idorasida marhum Nurbayev Yusup Urakovichga (2023-yil 3-iyunda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan meroxo'rlarning Saidova Zara Xisrovovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Abdurahmon Jomiy ko'chasi, 64-uy.

Urgut tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Hoshimov G'olib Baxtiyorovich notarial idorasida marhum Mazurekov Yuriy Bronislavovichga (2014-yil 12-yanvarda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan meroxo'rlarning Hoshimov G'olib Baxtiyorovich notarial idorasiga murojaat

"Vatanparvarlik oyligi" doirasida

HARBIY XIZMATCHILARNING FARZANDLARI BELLASHDI

O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil etilganiga 32 yilligi hamda Vatan himoyachilari kuni munosabati bilan viloyatimizda "Vatanparvarlik oyligi"

Ilmni ulug'lagan olim

Ustozni bog'bonga qiyoslashadi. Bog'bon bog' yaratса, ustoz ta'lim-tarbiya beradi. Shunday olimlarimizdan biri veterinariya fanlari doktori, professor Aktam G'afurovdir.

A.G'afurov 1944-yil Urgut tumanida tavallud topdi, bo'laligi Ishtixon tumanida o'tdi. Maktab davrida barcha fanlardan a'lo baholarga o'qidi. So'ngra Samarcand shahridagi veterinariya texnikumida tahlil oldi. Dastlab O'zbekiston veterinariya ilmiy-tadqiqot institutiga tahlilchi sifatida ishga qabul qilindi. Ilmga qiziquvchanligi uni Moskva Veterinariya akademiyasiga yetakladi.

Mazkur dargohda 1972-1978-yillarda davomida tahlil olib,

yetuk olimlardan ilm-fan sirlarini o'rgandi. Natijada 1982-yil veterinariya fanlari nomzodi ilmiy darajasini olishga muvaffaq bo'ldi. Ilm-fanga qiziqishi tufayli o'qidi, izlandi, tadqiqotlar olib borishdan charchamadi. 1998-yil veterinariya fanlari doktori ilmiy darajasini olishga erishdi, professor ilmiy unvoniga sazovor bo'ldi.

Olim qariyb yarim asrlik umrini uy hayvonlarining protozoj kasalliklarini davolash va oldini olish chora-tadbirlarini ishlab chiqishga bag'ishladi. Uzoq



yillar respublikamizning barcha viloyatlaridagi amaliyotchi chorvadorlar bilan uchrashib, qimmatli maslahatlarini berib keldi. Ustoz shogirdlari bilan hamkorlikda 400 dan ziyod ilmiy maqola, 5 ta ixtirolikka oid patent, 3 ta monografiya, 2 ta

o'quv qo'llanma va 10 dan ortiq tavsiyanoma, yo'rqnoma va qo'llanmalar yozishga muvaffaq bo'ldi.

U Yevropa Ittifoqining "Veterinariyaning tropik kasalliklari" jamiyatiga a'zosi. Ushbu jamiyatning Toshkent, Germaniya, Gamburg, Rim-Orviyetoda bo'lib o'tgan xalqaro konferensiylar ishtiroychisi va ma'ruzachisi. Bundan tashqari, Rossiya, Ukraina, Qozog'iston kabi MDH davlatlarida bo'lib o'tgan xalqaro konferensiylarda ma'ruzalari bilan ishtiroy etib kelmoqda. Veterinariya ilmiy-tadqiqot instituti huzuridagi ilmiy kengashning a'zosi.

Domlaning ko'p yillik samarali, fidokorona mehnati "Veterinariya fidoyisi", "Qishloq xo'jalik fidoyisi" ko'krak nishonlari hamda viloyat hokim-

ligining faxriy yorqliqlari bilan taqdirlangan.

Oilada, jamoada o'z o'rniqa ega ustoz turmush o'rtoq Raisa Petrovna bilan ikki o'g'il, bir qizini tarbiyalab, voyaga yetkazdi. Hozirda ular xalq xo'jaligining turli jabhalarida mehnat qilmoqda. Ustoz 7 nevara va 2 nafar chevaneran bobosi.

Mashaqqatlil ilm yo'lini bosib o'tgan olim Aktam G'afurov bugun tabarruk 80 yoshni qarshi olmoqda. Jamoamiz nomidan ustozni ushbu muborak yoshi bilan tabriklaymiz. Sermazmun hayot, olibiy baxt, salomatlik tilaymiz!

Bozorboy ELMURODOV, veterinarianiya ilmiy-tadqiqot instituti direktori, professor. O'tkin RASULOV, Vohidjon DUSQULOV, institut dotsentlari.

Bugun tobora globallashayotgan zamonda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohot va o'zgarishlar natijasi ta'lim sohasiga, qolaversa, kadrlarni tayyorlashga bevosita bog'liq. Barcha sohalar ni faqat yangi bilimlarga ega bo'lgan yoshlar rivojlantirishi mumkin. Qolaversa, Uchinchi renessans poydevorini mustahkamlashda bizga zamonaviy bilimlar bilan qurollangan yosh kadrlar kerak.

KELAJAK BUGUNDAN BOSHLANADI

Yaqin bir necha yil ichida oliy ta'lim sohasida sezilarli ijobji o'zgarishlar ro'y beriganini tan olish lozim. Oliy ta'lim muassasalarining ichki va tashqi qiyofasi o'zgarib, moddiy-teknik bazasi yaxshilanapti, ilmiy ishlanmalarni moliyalashtirish va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash kuchaytilgan, qolaversa, professor-o'qituvchilarning daromadlari ham ortsyapti. Ilmiy ish qilmoqchi bo'lgan yoshlar uchun bugun barcha sharoit va imkoniyatlar mavjud. Bunday e'tibor oliy ta'limga bo'lgan yondashuvni o'zgartirib, uning sifati hamda darajasini ko'tarishga xizmat qilishi aniq.

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va bioteknologiyalar universiteti ushbu soha uchun mutaxassislar tayyorlaydigan mamlakatimizdagi yagona oliy ta'lim muassasasidir. Tashkil etilganiga ko'p bo'lmagan (2018-yil) universitetimiz Yevropa, Osiyo, Amerika va boshqa mintaqalardagi 90 dan ortiq turdosh universitetlar bilan hamkorlik aloqalarini yo'nga qo'yan.

2023-yilda universitetda uzoq kutilgan loyiha – ilmiy innovatsion inkubatorga start berildi. Olyigohda yetuk kadrlar tayyorlashning samarali tizimi yo'iga qo'yish, ilmiy izlanishlarning tijoratshirish va ishlab chiqarishga joriy etish, talabalar amaliyotini tashkil etish hamda to'liq o'z-o'zini moliyalashtirish mexanizmiga yaratish maqsadida barcha imkoniyatlarni o'zida mujassamlashtirgan "O'zbekistonda veterinariya, bioteknologiya va chorvachilik sohasini rivojlantirish uchun ilmiy kadrlarni intensiv tayyorlash ilmiy biznes inkubatori" mega loyihasi amalga oshirilmoqda.

Loyihadagi bugungi kunda 75 nafar kishi faoliyat ko'rsatmoqda. Ularning 15 nafari fan nomzodi, 60 nafari fan (PhD) doktori, shuningdek, mustaqil izlanuvchilar va magistr talabalar o'dan ortiq hayvon turlari ustida o'z ilmiy-tadqiqot ishlarini olib bormoqda.

Umuman, yaxshi mutaxassisiga hamma joyda talab yuqori, ish topiladi.

Yaxshi yashash uchun ta'lim olish zarurligi, raqobatbardosh mutaxassis bo'lish lozimligini bugun talabalarning o'zlarini anglab yetmoqda. Kelayotgan yilda bu loyihamdan dastlabki natijalar ma'lum bo'ladi.



hirishimizga ko'mak berishadi.

Shuningdek, universitetda iqtidorli talabalar tomonidan 15 ta innovatsion hamda startap loyihalari shakllantirildi, respublika tanlovlariiga tavsuya etildi. 5 nafar iqtidorli talaba-yoshlarimiz davlatmizning nomdror stipendiyalari sohibi bo'ldi.

Bir so'z bilan aytganda, rejalashtirgan ishlarimizni bosqichma-bosqich amalga oshirib kelmoqdamiz. Muhim, buning uchun jamoamizda istak va xohish, shuningdek, imkoniyatlar ham yetarli.

Zamonaviy hayotni bugun ilm-ma'rifat va ta'lim taraqqiyotisiz tasavvur etish qiyin. Dunyoning eng ilg'or, yetakchi davlatlarida ta'limni rivojlantirish birinchiligi ustuvor vazifa sifatida belgilanishi ham bejiz emas. Negaki, mamlakatning kelajagi aynan shu sohada qo'lg'a kiritilgan yutuqlar bilan chambarchas bog'liqidir.

Xudoynazar YUNUSOV, Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va bioteknologiyalar universiteti rektori, biologiya fanlari doktori, professor.

SHU OYDA
TAVALLUD
TOPGANLAR

MUASSIS: Samarqand viloyati hokimligi

Bosh muharrir: Farmon TOSHEV

Gazeta O'zbekiston matbuot va axborot agentligining Samarqand viloyat boshqarmasida 2012-yil 30-martda 09-01 raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr 100. Indeks 438. 10 842 nusxada chop etildi. Buyurtma 23. Hajmi 2 bosma taboq, bichim 4-A2

Gazeta haftaning seshanba, payshanba va shanba kunlari chiqadi.

QABULXONA: (66) 233-91-51, **REKLAMA VA E'LONLAR:** (66) 233-91-56

BO'LIMLAR: (66) 233-91-57, 233-91-58, 233-91-59, 233-91-61

MANZILIMIZ: 140100, Samarqand shahri, Ulug' Tursunov ko'chasi, 80-uy, Matbuot uyi.

15-YANVAR

Abduqodir ABDUVOHIDOV – 1943-yilda Qo'shrabot tumani-da tug'ilgan. «El-yurt hurmati» ordeni sohibi.

Razzoq G'AFFOROV – (1932-2001). Samarqand tumanida tug'ilgan. Filologiya fanlari doktori.

Aktam G'AFUROV – 1944-yilda Urgut tumanida tug'ilgan. Veterinariya fanlari doktori, professor.

Shavkat HASANOVA – 1967-yilda Buxoro viloyati Shofirkon tumanida tug'ilgan. Filologiya fanlari doktori.

Gazeta «Zarafshon» tahririyatining kompyuter bo'limida sahifalandi.

«Noshir lux» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.

Korxona manzili: Samarqand shahri, Spitamen ko'chasi, 270-uy.

Boshishga topshirish vaqtiga:

soat 18:30 da.

Boshishga topshirildi:

soat 19:00.

Navbatchi muharrir:

A.SHERZOLOV.


Navbatchi:

F.RO'ZIBOYEV.

Sahifalovchi:

B.ABDULLAYEV.

ISSN-201667X



Sotuvda
narxi kelishilgan holda

↓ Yonimizdag'i odamlar



TITANIK ENG QIMMAT CHIPTA

Titanikdagi eng qimmat – birinchi klass chiptasi 2560 dollar (bugungi 68 000 dollar) bo'lgan. Ushbu pul evaziga yo'lovchiga ikkita yotoq, ikkita kiyinish xonasi va qo'shimcha yashash xona, shuningdek, shaxsiy sayr qilish maydoni bo'lgan kabina taqdim etilgan.

**"TITANIK"NING CHO'KISHI QARIYB
14 YIL OLDIN NASHR ETILGAN ROMANDA
BASHORAT QILINGAN**

1898-yilda amerikalik yozuvchi Morgan Robertson "Behudalik" romanini nashr etdi. Unda aprel oqshomida aysberg bilan to'qnashganda o'ng tonomi shikastlangani sababli cho'kib ketgan "Titan" kemasining so'nggi sayohati hikoya qilinadi. Qutqaruvchi qayiqlarning yetishmaganligi ko'plab qurbanlarga olib keladi. Roman o'n to'rt yil o'tgach, 1912-yilda, 15-aprelga o'tar kechasi, aysberg bilan to'qnashuv natijasida "Titanik" layneri cho'kib ketgach, mashhur bo'ldi.

**DEYARLI BARCHA AYOLLAR OMON
QOLISHGAN**

Kema yo'lovchilarining atigi 32 foizi qutqarilgan bo'lsa-da, birinchi klasda sayohat qilgan ayollarning 97 foizi tirik qolgan.

"TITANIK" HALOKATINI "BASHORAT QILGAN" PUBLITSIST

1886-yilda britaniyalik jurnalist va jamoat arbobi Uilyam Tomas Stead qutqaruv qayiqlari kamli tufayli cho'kayotgan kemada odamlarning halok bo'lgani haqida qisqacha hikoya yozgan. 26 yil o'tgach, uning o'zi ham "Titanik"da halok bo'lgan.

"QORA TO'DA"

Ushbu nom "Titanik"da ishlayotgan o'tyoqar (kochegar) larga berilgan edi. "Qora to'da"lar – 176 kishi har kuni olov qutisiga qo'lda 600 tonnaga yaqin ko'mir va har 24 soatda okeanga 100 tonnaga yaqin kul tashlar edi.

**YAGONA YAPONIYALIKNING
QAYG'ULI HIKOYASI**

Masabumi Xosono "Titanik" bortida bo'lgan yagona yaponiyalik edi. U Yaponiya Transport vazirligida davlat xizmatchisi bo'lib ishlagan. Rossiya va Londondagi missiyasi tufayli "Titanik"ning ikkinchi klass yo'lovchisi bo'ldi. Xosono deyarli hech qanday qutqaruv qayiqlardan birida yana ikki kishi uchun joy borligini ko'rdi. Yaponiyaga qaytib kelgach, unga "qo'rqed" degan tamg'a qo'iladi va u ishidan ayiriladi. Maktab darsliklarida uni insofsiz va axloqsiz odam sifatida tafsiflashadi. Chunki qo'chib qutulib, samuraylarning ruhiya xiyont qildi va fidoyitlikdan voz kechdi, u kema bilan birga cho'kishi kerak edi, deb ishonishgan. Xosono umrining qolgan qismini sharmandalikda o'tkazdi va uning "dog'li obro'si" ko'p yillar oilasini ta'qib qildi.

**2030-YILGA BORIB,
BUTUNLAY YO'Q BO'LADI**

Halomonas titanicae turdag'i "po'latxo'r bakteriyalar" laqabl mikroblarning metalga bo'lgan "ishtiyogi" tufayli Atlantika okeani tubida – 3,8 ming metr chuqurlikda yotgan "Titanik" vayronalarini 7 yilda yo'q bo'ladi.

G.XOLDOROVA tayyorladi.